

Q'ZBEKISTON HUDUDIDA BRONZA DAVRI JAMIYATIDA KECHGAN TARIXIY JARAYONLAR SAHIFASI

Satimov Bahodir, Urganch innovatsion universiteti dotsenti

PAGE OF HISTORICAL PROCESSES IN THE BRONZE AGE SOCIETY IN UZBEKISTAN

Satimov Bakhodir, Associate Professor, Urgench Innovative University

СТРАНИЦА ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ОБЩЕСТВЕ БРОНЗОВОГО ВЕКА УЗБЕКИСТАНА

*Сатимов Баходир, доцент Ургенчского инновационного
университета*



<https://orcid.org/0009-0004-5127-2898>

9-0004-5127-2898

e-mail:

bsatimov263@gmail.com



Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda bronza jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlar rivojlanish tarixi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tolstov S.P., G'ulomov Y.G., Itina. M.A., Asqarov A., Islomov I.I., Normurodov D., Juraqulov M.J., Abdullayev O'I., O'zbekiston, Xorazm, Qizilqum, Qoraqum, Zarafshon, Toshkent, Surxondaryo, Farg'ona, Selengur, Ko'lbuloq, Churik, Tozabog'yob, Zomonboba, Chust, Sopolli.

Abstract: The article analyzes the history of the development of the bronze society in Uzbekistan, its socio-economic and ethnic-cultural relations.

Keywords: Tolstov S.P., Gulomov Y.G., Itina M.A., Askarov A., Islamov I.I., Normurodov D., Jurakulov M.J., Abdullayev O.I., Uzbekistan, Khorezm, Kyzylkum, Karakum, Zarafshon, Tashkent, Surkhandarya, Fergana, Selenga, Kolbulok, Churik, Tozabogyob, Zamonbaba, Chust, Sopolli.

Аннотация: В статье анализируется история развития бронзового общества в Узбекистане, его социально-экономические и этнокультурные связи.

Ключевые слова: Толстов С.П., Гуломов Ю.Г., Итина. М.А., Аскаров А., Исламов. И.Я., Нормуродов Д., Джуракулов М.Дж., Абдуллаев О.И., Узбекистан, Хорезм, Кызылкум, Каракумы, Зарафшон, Ташкент, Сурхандарьинская, Фергана, Селенга, Колбулок, Чурик, Тозабогейб, Замонбаба, Чуст, Сополли.

KIRISH. Yer sharining geologik taraqqiyoti natijasi O'zbekiston hududi tuzilishi tog', tog' oldi, dasht, balandlik va botiqlardan iborat bo'lib, uning tog'lik hududlari shimoli-sharqiy, janubiy va janubi-sharqiy hududlarni qamrab olgan, g'arbiy qismi Qoraqum chegaralari, sharqida Qizilqum sahrosi tashkil qilgan. Orol dengizidan – Janubiy So'g'd tog'i hududigacha bo'lgan geografik kenglik 300 ming kv km, uning 70-80 foizini tekislik egallagan. Shundan 4,5 mln

gektarda Xorazm vohasi joylashgan. Ustyurt platosi ochiq, jarlik va quduqlardan, Quyi Amudaryo Qizilqum va Qoraqum o'rtasida, Zarafshon vodiysi tog' va tekislik; Surxon va Toshkent vohalari tog', tog' oldi tekisligi, Farg'ona vodiysi to'rt Tomoni tog', tog' yon bag'ri past tekislikdan iborat. Yuqorida zikr qilingan tarixiy geografik hududlar o'ziga xos xususiyatlari bilan odamzotning joylashishi, turmush tarzi, antropogen landshafti o'zgarish

xususiyatlari moddiy madaniyatida o'z aksini topgan. O'zbekiston viloyatlarida arxeologik tadqiqotlar olib borilishi natijasida olingan ashyolar Ustyurt, Qoraqum, Churuk, shimoliy Zarafshon vodiysi Toshkent vohasi hududida Ko'lbuloq, Farg'ona vodiysi Selengur makonlarida ilk tosh davri, o'rta tosh davrida Markaziy So'g'd (Omonqo'ton, Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Guldara), Surxon vohasi (Teshiktosh), so'nggi tosh (Xorazm) davri ibtidoiy ovchilari bosqichma-bosqich tabiiy resurslardan unumli foydalanib, o'zaro bag'rikenglikda tabiat hadyasidan geografik kenglikda foydalanib, etnik munosabatlarni olib borib bronza davriga jamiyatning iqtisodiy asosi o'zlashtiruvchi xo'jalik bilan bronza davriga yetib kelganlar. Mazkur maqolada, ajdodlarimizning bronza davrida olib borgan bunyodkorlik faoliyatlari natijalarining arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida yoritish nazarga olingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR-NING TAHLILI. XX asr 50-yilidan boshlab, O'zbekistonning tabiiy-iqtisodiy hududlarida olib borilgan keng qamrovli arxeologik izlanishlar natijasida olingan moddiy ashyolar bronza jamiyatida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarni yoritishda asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda nazariy-qiyosiy tahlil asosida bronza davrida yuz bergan urbanistik jarayonlar darajasi natijalarini ikki tarixiy davrga ajratgan holda jamiyatda yuz bergan o'zgarishlarni izohlash imkoniyati mavjud:

1. Tabiiy-iqtisodiy hududlar: Ustyurt, Quyi Amudaryo havzasi, Zarafshon vodiysi va Toshkent vohasi;

2. Iqtisodiy hudud: Farg'ona vodiysi va Surxon vohasi.

O'zbekiston hududida ikki hududda jamiyatning eneolit davrini qamrab olgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar asosida bronza jamiyatining notekis rivojlanishi davom etgan, urbanistik jarayonning issiq shabadalari birinchi tabiiy iqtisodiy hududlarda istiqomat qilgan aholi ma'naviyatiga ta'sir qilgan emas, shu bois bu jarayon turar joylar qurilishida, xo'jalikning turli sohalarida miqdoriy sifat jihatidan o'zgarishlar yuz bermagan. Darhaqiqat, mil.avv. II mingyillik birinchi yarmidan boshlab, shimoli-g'arbiy, Turon

tog'i janubida o'rnashgan Yog'ochband va O'rta Osiyo shimoli-sharqida chorvador-ko'chmanchi va yarim o'troq Andronova qabilalarining Quyi Amudaryo, Quyi Zarafshon, Toshkent vohasiga kelib joylashib etnik munosabatlarni faollashtirganlar.

Ustyurt hududi ichki suvlar tabiat hadyasi, Quyi Xorazm vohasi Amudaryo, Quyi Zarafshon va O'rta Zarafshon Zarafshon daryosi suv tarkibidagi mineral moddalarni yotqizishi natijasida iqtisodiy omillar hosil qilgan bo'lsa, Toshkent vohasida tog'lardan oqib tushgan jilg'alar suvini qamrab olgan Ohangaron daryosi iqtisodiy omillarni hosil qilganligi bois etnik jarayonlar ta'sirida antropogen landshaftlari va ekologik jarayonlar kechgan. Mazkur tabiiy-iqtisodiy hududlarda o'rnashgan aholi yarim yerto'la shaklida chayla-qal'alarda yashab bronza jamiyati tadrijiy ravishda rivojlantirganlar. Farg'ona va Surxondaryo tabiiy-iqtisodiy hududlarida bronza davri ikkinchi yarmi birinchi choragida urbanistik jarayonlar qamrab olinishi munosabatida yuz bergan o'zgarishlar aholi turar joylarining bunyod qilinishi, moddiy va ma'naviy munosabatlarida aks etgan. Mil.avv. XVII asrdan boshlab, Surxon vohasi, mazkur tarixiy davr birinchi yarmida Farg'ona vodiysi tub aholisi andronovaliklar bilan omuxtalashgan aholi a'zolari o'troq hayot, sun'iy sug'orma dehqonchilik va binokorlik bilimi asosida istehkomli turar joylarni bunyod qilish sari qadam tashlagan, bu esa o'z navbatida urbanistik jarayonlarning issiq shabadalari kirib kelganligidan dalolat beradi. Shu ma'noda O'zbekiston hududida bronza davrining so'nggi rivojlanishida turar joylarni topografik joylashishi, tuzilishida tub o'zgarishlar yuz berganligi bilan bir-biridan farqlanishi jihatidan ikki hudud shakllangan, bu jarayon keyingi tarixiy davrda davom etgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Quyidagilardan foydalanildi: ilmiy xolislik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, bahs, munozara, umumlashtirish, mantiqiy xulosa hamda arxeologiya, antropologiya, geografiya, etnografiya fanlari tadqiqotlari natijalaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. O'tgan asr adabiyotlari XXI asr boshlari O'zbekiston viloyatlarida turli nomada arxeologik

ekspeditsiyalar va tarixchi xodimlarning bronza davriga mansub aholi turar joylarida keng qamrovli tarzda olib borilishi munosabati bilan olingan moddiy ashyolar asosida jamiyatda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanishi jarayoni tahlil qilindi, shu asosda natijalar qayd qilindi, ya'ni bronza davri jamiyatida kechgan tarixiy jarayonlarning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, ikki hudud, ya'ni markaziy, shimoliy va shimoli-sharqiy hududlar, Farg'ona va Surxondaryo hududlarida kechgan tarixiy jarayonlar rivojlanishining bir-birini takror qilmaganligi to'g'risida natijalar qayd qilindi. Shu jihatlardan kelib chiqib, quyidagi xulosa va takliflar olg'a surildi.

Mavzu mazmunini qamrab olgan tarixiy ma'lumotlar quyidagi xulosalarni qayd qilish imkonini berdi:

- Ilk tosh davri ibtidoiy odamlarning vorislari, bir guruh vakillari aholi soni miqdori oshganligi sabab, moslashgan geografik doiradan chiqib, tabiiy-iqtisodiy hududlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirib, jamiyatning iqtisodiy tizimi o'zlashtiruvchi xo'jalik bilan bronza davriga shaxdam qadamlar bilan o'zaro hamkorlik, tabiiy kuchlarga bo'lgan e'tiqodlari bilan yetib kelgan;

- Bronza davriga kelganda Quyi Amudaryo, Zarafshon vodiysi quyi havzasi, Toshkent va Farg'ona vodiysi hududlari ko'chmanchi-chorvador qabilalarning kelib joylashish makonlari bo'lgan;

- Mil.avv. II ming yillik ikkinchi yarmidan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy munosabatlarda kechgan jarayonlar O'zbekiston hududi shimoliy va markaziy hamda shimoli-sharqiy (Farg'ona vodiysi va Janubiy Surxondaryo) hududlari aholisi olib borgan moddiy madaniyatlari bir-biridan farqlanish xususiyati yakun topgan.

Yuqorida qayd qilingan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari surildi:

1. O'zbekistonning bronza davrida kechgan jarayonlarning bir-biridan farqlanishidan ijtimoiy-iqtisodiy omillarini o'rganish;

2. Shu asosda tabiiy-iqtisodiy hududlarda xo'jalik-madaniy turlarni vujudga kelishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish;

3. Xo'jalik-madaniy tiplarda o'rganilgan aholining bir-biri bilan iqtisodiy-etnik madaniy aloqalari tarixini yangicha qarashlar va yondashuvlar asosida o'rganish hozirgi davr ruhiga mos keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта – ИВЛ РАН, - М: Наука, 1962.
2. Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи.-Тошкент, Фан, 1959.
3. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья//ТрХАЭЭ – М.: Наука, 1977. Г.Х.
4. Аскарлов А. Сополлитера.Ташкент, Фан, 1973.
5. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпоха бронзы юга Узбекистана. – Ташкент, Фан, 1977.
6. Аскарлов А. Культура Заманбаба в низовьях Зарафшана//ОНУ:Ташкент, Фан, 1962. №1.
7. Я.Г.Гулямов, У.Исламов, А.Аскарлов. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. // Ташкент: Фан, 1966.
8. Нормуродов Д.Р. Куйи Охангарон хавзасида Бурганлик маданиятига давр мулохазалари// Марказий Осиё тарихи ва археологияси: анъаналар, инновациялар ва истиқболлар. – Тошкент, 2021.
9. Журакулов М.Ж. Самарқанд воҳасининг ибтидоий маданияти тарихи саҳифаси. – Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2011 №1(2).
10. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи. – Тошкент, 2019.

